

ADVOKATLIK SO'ROVI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Abduvohobova Munisa Zafar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15638091>

Annotatsiya. Ushbu maqolada advokat va davlat organlari (sud, prokuratura, tergov, ma'muriy organlar) o'rtasidagi munosabatlar, advokat va nodavlat tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi axborot olishga doir munosabatlar, advokatlik so'roviga javob berish yoki uni rad etish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy masalalar, advokatlik so'rovining samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganiladi. Shuningdek, advokatlik so'rovining huquqiy tabiati bilan birga AQSh, Rossiya, Fransiya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilib, xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitiga tadbiq qilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: advokatlik so'rovi, huquqiy yordam, xorijiy tajriba, huquqiy islohotlar, axborotga ega bo'lish huquqi.

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan buyon demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Shu maqsadda mamlakatimiz sud-huquq tizimining uzviy bo'lagi hisoblangan advokatura sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun-mohiyati, maqsadi, avvalo, advokaturaning jamiyatdagi mavqeini ko'tarish, kuchli mustaqil advokatura tizimini shakllantirish orqali fuqarolarning huquq erkinliklari hamda qonun bilan qo'rqlanadigan manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmini yaratishdir.

Advokatlik so'rovining huquqiy asoslari, uni berish tartibi va u haqidagi qisqacha tushuncha "Advokatura to'g'risida"gi Qonunda belgilab o'tilgan, ya'ni mazkur Qonunning 71-moddasida¹ advokatlarga ish yuzasidan ma'lumotlarni va tegishli hujjatlarni so'rab olish nazarda tutilgan. Advokat o'ziga kerakli hujjatlarni va ma'lumotlarni olish uchun davlat organlari, korxona, tashkilot, muassasalarga ariza bilan chiqish vakolatiga ega. Eng asosiysi, Konstitutsiyamizning

29-moddasida har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi keltirilgan va bu huquqni ta'minlashda advokatlik so'rovi muhim ahamiyatga ega.

Advokatlik so'roviga javob berish muddatlari har bir davlatda har xil hisoblanadi. Yurtimiz O'zbekistonda axborotlar, ma'lumotlar, tegishli hujjatlar advokatlik so'rovi olingan vaqtdan boshlab 15 kundan kechiktirilmagan holda taqdim etilishi kerak. Qirg'iziston Respublikasining "Advokatlik faoliyati va yuridik yordam to'g'risida"gi Qonunining 25-moddasida advokat so'rovini bajarish muddati – 14 ish kuni etib belgilangan. Qozog'iston Respublikasining "Advokatlik faoliyati va yuridik yordam to'g'risida"gi Qonunining 35-moddasida ish ko'rib chiqilayotgan muddat - 10 ish kuni qilib belgilangan. Eng qisqa muddat Ukrainada. "Advokatlik faoliyati va advokatura to'g'risida"gi Ukraina Qonuniga muvofiq, 5 kun muddat ichida advokatlik so'roviga javob qaytariladi va mazkur muddat 20 kungacha uzaytirilishi mumkin. Rossiya qonunchiligiga yuzlanadigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasining "Advokatlik faoliyati va advokatura to'g'risida"gi Federal qonuni (№ 63-FZ, 2002-yil 31-may) 6.1-moddasiga keltirilishicha, Advokatning so'roviga davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan javob 30 kun ichida berilishi shart. Qo'shimcha vaqt kerak bo'ladigan taqdirda esa bu haqida advokatga

¹ O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997

tegishli tartibda xabar beriladi.

Biz advokat so'rovi bo'yicha muddatlarni bir qator xorijiy davlatlar misolida ko'rib chiqdik. Shu o'rinda advokat so'rovini asosli rad etilishi holatlariga to'xtalib o'tamiz. Kochanovanning fikricha, advokatning so'rovida davlat siri, tijorat siri va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa ma'lumotlarni taqdim etish so'ralganida so'rovda ko'rsatilgan ma'lumotlar taqdim etish rad etiladi. Agar advokatlik so'rovini olgan subyekt so'ralayotgan axborotga yoki hujjatlarga ega bo'lmasa yoki ma'lumotlarda davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir mavjud bo'lsa, shuningdek advokat so'rovida unga qo'yilgan talablar keltirilmagan bo'lsa, so'ralayotgan axborotni advokatga taqdim etish rad etilishi mumkin². Buyuk Britaniya qonunchiligiga ko'ra, advokatlar (barristers va solicitors) so'rov yuborishi odatda "Data Protection Act 2018" va "Freedom of Information Act 2000" doirasida ko'rib chiqiladi. Rad etish asoslari:

- Shaxsiy ma'lumotni uchinchi shaxsga oshkor qilish qonunga zid bo'lsa;
- Tijorat sirlari, davlat siri yoki kasbiy maxfiylikni tashkil etuvchi ma'lumotlar;
- Axborot milliy xavfsizlik, jamoat tartibi yoki tergov manfaatlariga zarar yetkazgudek bo'lsa³

u holda advokatlik so'rovi rad qilinadi. Umuman olganda, rad qilish asoslari hamma davlatlarda deyarli bir xil: ariza shakliga rioya etilmasa, kerakli hujjatlar ilova qilinmasa, davlat siri, tijorat siri yoki jamiyat manfaatlariga zid bo'lgan ma'lumot-hujjatlar talab qilinsa, u holda advokatlik so'rovi rad qilindi va bu haqida advokatga yoki egishli shaxsga xabar qilinadi.⁴

Advokat axborot so'raganida, uning murojaati qonuniy va kasbiy doirada bo'lishi lozim. Agar so'ralgan ma'lumot shaxsiy ma'lumot, tijorat yoki davlat siri hisoblansa, ma'lum cheklovlar bo'lishi mumkin. Ammo shunday holatda ham advokat sud orqali axborotni talab qilib olish imkoniyatiga ega. E'tiborli jihati shundaki, axborotni faqat ishonch bildiruvchi shaxs manfaatini ta'minlash maqsadida olish mumkin va advokatlik sirini buzish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Javobgarlik masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, bizda O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksning 197¹-modddasida Advokat so'roviga axborotni taqdim etmaslikda, o'z vaqtida taqdim etmaslikda yoxud bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborot taqdim etishda ifodalangan tarzda advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish, shuningdek advokatning ishda ishtirok etishiga to'sqinlik qilish yoki uning ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) manfaatlariga zid bo'lgan vaziyatni majburan egallashiga erishish maqsadida advokatga qanday shaklda bo'lmasin ta'sir o'tkazish bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Ayrim davlatlar, masalan Qozog'istonda "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida"gi Kodeksining 462-moddasiga ko'ra, advokatga zarur axborotni bermaslik yoki uni yashirin, orqaga cho'zib yurish 10-15 baravargacha jarima, ayrim hollarda ogohlantirishga sabab bo'ladi. Ukraina qonunchiligiga ko'ra, 4250 dan 8500 grivnaga qadar jarima (tahminan 100-200 USD) yoki lavozimida ishlash huquqidan mahrum qilishgacha olib kelishi mumkin.⁵

Xulosa qilib aytganda, yurtimiz va xorijiy davlatlardagi vaziyatlarni o'rganar ekanmiz,

² Model Rules of Professional Conduct / American Bar Association. – 2023

³ Federal Rules of Civil Procedure, Rules 26–37. – United States Courts. – Current through 2024

⁴ Matmurotov A. R. Advokat so'rovi: muammolar va ularning yechimlari // Ilmiy amaliy huquqiy tadqiqotlar jurnali. – 2024

⁵ «Закон об Адвокатуре Кыргызской Республики и адвокатской деятельности» 14 iyun 2014 yil № 135 (в редакции Законов КР от 27 июля 2016 года № 147, 12 декабря 2016 года № 196, 19 апреля 2017 года № 61)

yurtimizda qilinishi kerak bo'lgan bir qator ishlar mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. Advokat so'rovi fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun muhim mexanizm hisoblanadi. Shu sababli davlat organlari, korxona va tashkilotlar tomonidan advokat so'roviga javob bermaslik yoki bila turib yolg'on ma'lumot taqdim etganlikda ifodalangan harakat yoki harakatsizligi yoxud ushbu masala yuzasidan advokat faoliyatiga boshqacha tarzda to'sqinlik qilganligi uchun mansabdor shaxslarga nisbatan javobgarlikni yanada kuchaytirish, ya'ni jinoiy javobgarlikka tortish masalasini qonunchilikda belgilash maqsadga muvofiq. Bundan tashqari:

- Advokatlik so'rovi instituti "Advokatura to'g'risida"gi Qonunda alohida normalar bilan mustahkamlanishi hamda mustaqil institut sifatida faoliyat olib borishi kerak;
- Advokatlar uchun maxsus, o'ziga xos platforma yaratilishi va mazkur platformada advokatlik so'rovi yuborilishi, uni qabul qilish, rad qilish, barcha harakatlarni kuzatish imkonini beruvchi funksiyalarni amalga oshirish
- Advokatlik so'roviga vaqtida javob bermaganlik uchun ma'muriy javovgarlik choralari kuchaytirish;
- Advokatlik so'rovini yuborish uchun maxsus yo'riqnoma ishlab chiqilishi kerak;
- Advokatlik so'rovlarining ijrosini sud o'z nazoratiga olishi lozim.

Yurtimizda bu jarayonning huquqiy asoslari mavjud bo'lsa-da, uni amaliyotda qo'llashda bir qator muammolar paydo bo'lmoqda. Shu boisdan milliy qonunchilikni isloh qilish, mavjud mexanizmlarni kuchaytirishva advokatning axborotga bo'lgan huquqini to'liq ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero mazkur jarayon adolatni ta'minlash uchun muhim qadam hisoblanadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997
2. Federal Rules of Civil Procedure, Rules 26–37. – United States Courts. – Current through 2024. – Available at: <https://www.uscourts.gov/rules-policies/current-rulespractice-procedure>
3. «Закон об Адвокатуре Кыргызской Республики и адвокатской деятельности» 14 iyun 2014 yil № 135 (в редакции Законов КР от 27 июля 2016 года № 147, 12 декабря 2016 года № 196, 19 апреля 2017 года № 61)
4. Matmurotov A. R. Advokat so'rovi: muammolar va ularning yechimlari // Ilmiy amaliy huquqiy tadqiqotlar jurnali. – 2024
5. Sharipov F.X. Advokatlik so'rovining nazariy-huquqiy asoslari // Yuridik fanlar elektron jurnali. – 2023
6. Model Rules of Professional Conduct / American Bar Association. – 2023. – Available at https://www.americanbar.org/groups/professional_responsibility/publications/model_rules_of_professional_conduct/